



SIRDARYO VILOYATI GULISTON TUMANI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 27 - fevral

64-9-124-Q/23

Guliston tumani hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2023-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ-3001-son “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrda 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan, Guliston tumanida 2023-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil, 9-son, 320-modda)ning 6, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 39-moddasiga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida Guliston tumanidagi

mavjud korxonalar, muassasalar va tashkilotlar xodimlarining ro'yhati bo'yicha o'rtacha sonidan (1733 nafardan) 117 ta ish o'rnini tashkil etadigan 6,8 foiz miqdoridagi, shu jumladan:

- o'n to'rt yoshgacha va nogironligi bo'lgan bolalari bor yolg'iz ota, yolg'iz onalar va ko'p bolali oilalar uchun 1,5 foiz (26 ta ish o'rne);

- umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini tamomlagan har qanday yoshlar, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun 0,9 foiz (15,6 ta ish o'rne);

- safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o'tagan va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar uchun 0,6 foiz (9,9 ta ish o'rne);

- nogironligi bo'lgan shaxslar uchun 3,1 foiz (53,6 ta ish o'rne);

- pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 0,3 foiz (4,4 ta ish o'rne);

- jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tushdagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar uchun 0,1 foiz (1,9 ta ish o'rne);

- odam savdosidan jabrlanganlar uchun 0,1 foiz (2,3 ta ish o'rne);

- atrofdagilar uchun xavf tug'dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun 0,2 foiz (3,3 ta) ish o'rinlarining zaxirasi belgilansin.

2. Qarorning 1-bandida ko'rsatilgan talablarga javob beradigan kasb va mutaxassisliklar bo'yicha 2023-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun band qilib qo'yilgan ish joylarini barpo etish vazifasi yuklatilgan tashkilotlar, korxonalar va muassasalar ro'yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu toifa shaxslar uchun ish o'rinlari xodimlar tomonidan o'zlarining mehnat majburiyatlarini to'siqlarsiz bajarishini ta'minlaydigan sanitariya gigiyena normalari va mehnat sharoitlariga muvofiq bo'lishi kerak.

Shu jumladan:

o'n to'rt yoshgacha va nogiron bolalari bo'lgan yolg'iz va ko'p bolali otalar uchun bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlarini bo'yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo'shib olib borish imkonini beruvchi ishning

moslashuvchan jadvaliga ega bo'lgan ish o'rinlari;

umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun ularning kasb bo'yicha tayyorgarligiga muvofiq bo'lgan ish o'rinlari;

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o'tagan va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar uchun – ularning professional tayyorgarligiga mos bo'lgan ish o'rinlari;

nogironligi bo'lgan shaxslar uchun mehnat sharoitlari bo'yicha attestasiyadan o'tkazilgan va xodimga ularning sog'ligi holatini va mehnat faoliyatiga to'g'ri kelmaydigan, belgilangan zidliklar hisobga olingan holda mehnat operasialarini to'siqsiz bajarish imkonini beradigan ish o'rinlari;

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo'lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o'rinlari;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tUSDagi majburlov choralari qo'llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun ularning kasb bo'yicha tayyorgarligi hisobga olingan holdagi ish o'rinlari, muayyan kasb-hunarga, malakaga ega bo'lmagan shaxslar uchun maxsus malaka talab qilmaydigan ish o'rinlari;

odam savdosi qurbonlari uchun ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o'rinlari xarakterli talablarga muvofiq bo'lgan mehnat sharoitlarini ta'minlaydigan ish o'rinlari hamda yuqorida ko'rsatilgan barcha toifalar uchun mos sharoitlar yaratilishi lozim.

4. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar:

- yil boshidan, o'n kundan kechikmay muhtojlarni ishga joylashtirish uchun zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari umumiy sonining kamida 25 foizi miqdorida ish o'rinlari zaxiraga qo'yilishi va tayyorligini ta'minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshidan tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazini xabardor qilishi shart.

- muhtojlar uchun ish o'rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo'yish ish beruvchi tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta'minlanadi, bu haqda tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazi birinchi chorak tamom bo'lgandan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilinadi.

5. Ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar:

- qarorning 1-bandi 2-xatboshida ko‘rsatilgan talablarga javob beradigan kasb va mutaxassisliklar bo‘yicha korxonalar, muassasalar va tashkilotlar kesimidagi ish o‘rinlari ko‘rsatilgan holdagi miqdorda ilovaga muvofiq tashkil etilsin.

6. Tashkilot, korxonalar va muassasalarning rahbarlari;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrda 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 20-bandiga muvofiq ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ko‘rsatilgan ish o‘rinlarini belgilangan muddatlarda, belgilangan tartibda barpo etilishini va ijro etilishini ta’minlasinlar.

7. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha ushbu qaror bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanishi to‘g‘risida ogohlantirilsin.

8. Ushbu qarorda belgilangan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish sonidan, ortiqcha ish o‘rinlari tashkil etgan tashkilotlarga:

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 31-mayda ro‘yxatdan o‘tkazilgan № 3163-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 4-bobiga asosan subsidiyalar ajratish;

mahalliy davlat hokimiyatiga berilgan vakolatlar doirasida qonunda belgilangan tartibda boshqa imtiyozlar berilishi mumkinligi belgilansin.

9. Guliston tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi besh kunlik muddat ichida mazkur qarorni, ilovasida ko‘rsatilgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari e’tiboriga yetkazsin.

10. Qaror matni hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

11. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2021-yil 19-oktabrdagi 130-9-124-Q/21-sonli va 2022-yil 8-sentabrdagi 352-9-124-Q/22 sonli qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan, deb hisoblansin.

12. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni, tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Mamarasulov hamda Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi rahbari F.Asilbekov zimmasiga yuklatilsin.

13. Ushbu qaror rasmiy nashrda e‘lon qilingan kundan e‘tiboran uch oy o‘tgach kuchga kiradi.

Tuman hokimi



S.Begimkulov

Guliston tuman hokimining
2023 yil 27 fevraldagi
64-9-124-Q/23-son qaroriga
1-ilova

2023-yilda Guliston tumani bo'yicha ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobat qila olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo'yilgan ish joylarini barpo etish vazifasi yuklatilgan tashkilotlar, korxon va muassasalar ro'yhati

T/p	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini belgilash taklif etilayotgan tashkilotlar ro'yhati	Shtat jadvali bo'yicha xodimlarning umumiy soni	Kelgusi 2023-yilga zahiraga qo'yish taklif etilayotgan ish o'rinlari soni	shu jumladan:							
				nogironligi bo'lgan shaxslar uchun(3%)	o'n to'rt yoshga to'lmagan bolalari, nogironligi bo'lgan bolalari bor yolg'iz ota yoki ona, shuningdek ko'p bolali oilalarning ota-onalari uchun (0,5%)	O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulotda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo'shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilganlar uchun (0,5%)	umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlari hamda texnikumlarini ta'minlab, kasbga ega bo'lgan yoshlar, "Mehribonlik" uylari ning bitiruv chilari, shuningdek, oliy ta'lim muassasalari ning davlat grant lari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun (1,0%)	pensiyasiz yoshidagi shaxslar uchun (0,5%)	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki o'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llanilgan shaxslar uchun (0,5%)	odam savdosidan jabrlanganlar uchun 0,5%	atrofdagilar uchun xavf tug'dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun (0,5%)
1	Guliston tumani 14-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	99	6,5	3,0	1,0	1,0	0,5	0,5	0,5		
2	Guliston tumani 11-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti	42	2,8	1,3	0,5	0,5	0,5				
3	Guliston tumani 2-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti	53	3,6	1,6	1,0	0,5	0,5				
4	Guliston tumani 9-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti	48	3,0	1,5	1,0		0,5				
5	Guliston tumani bolalar va o'smirlar sport maktabi	43	2,8	1,3		0,5	0,5	0,5			
6	Guliston tumani 13-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabi	46	3,2	1,4	1,0	0,5				0,3	
7	Guliston tumani 2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	100	7,0	3,0	1,0		1,0	1,0	1,0		
8	Guliston tumani 5-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	61	4,0	2,0	1,0		1,0				
9	Guliston tumani 24-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	49	3,0	1,5		0,5	1,0				
10	Guliston tumani 6-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	70	4,6	2,1	0,5	0,5	1,0				0,5
11	Guliston tumani 15-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti	36	2,5	1,1	0,5		0,5	0,4			
12	Guliston tumani 18-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	47	3,0	1,5	1,0		0,5				
13	Guliston tumani 3-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	61	4,0	2,0	1,0	0,5	0,5				
14	Guliston tumani 8-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	52	3,6	1,6	1,0		0,5			0,5	
15	Guliston tumani 16-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	57	3,8	1,8	1,0		0,5	0,5			
16	Guliston tumani 19-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	40	2,7	1,2	1,0		0,5				
17	Guliston tumani 26-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	52	3,5	1,6	1,0			0,5			0,4
18	Guliston tumani 30-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	65	4,5	2,0		1,0	0,5	0,5		0,5	
19	Guliston tumani 21-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	42	2,8	1,3	1,0						0,5
20	Guliston tumani 12-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	35	2,4	1,1	1,0						0,3
21	Guliston tumani 13-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti	37	2,6	1,2	1,0	0,4					
22	Guliston tumani 29-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	38	2,6	1,2	1,0		0,4				
23	Guliston tumani 22-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	37	2,6	1,2	0,5	0,5	0,4				
24	Guliston tumani 4-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	37	2,6	1,2	1,0		0,4				
25	Guliston tumani 11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	38	2,6	1,2	1,0						0,4
26	Guliston tumani 20-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	39	2,7	1,2	0,5	0,5	0,5				
27	Guliston tumani 13-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	44	2,9	1,4	0,5	0,5	0,5				
28	Guliston tumani 17-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	66	4,5	2,0	1,0	0,5	0,5			0,5	
29	Guliston tumani 10-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	46	3,2	1,4	1,0		0,4				0,4

30	Guliston tumani 7-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	65	4,4	2,0		1,0	0,5			0,5	0,4
31	Guliston tumani 25-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	40	2,7	1,2	1,0			0,5			
32	Guliston tumani 9-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	63	4,4	2,0	1,0		1,0				0,4
33	Guliston tumani 15-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	85	6,0	2,6	1,0	1,0	1,0		0,4		
	JAMI	1733	117,0	53,6	26,0	9,9	15,6	4,4	1,9	2,3	3,3